



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMiy O'YINLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA USULiy ASOSLARI

Nagachbayeva Tangsholpan Mingbayevna
Buxoro viloyati Romitan tumani Gazli shahri 36-sonli maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fani o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshlang'ich sinflarda ona tili darslariga qo'yilgan zamonaviy talablar haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Ona tili, sinf, o'qitish, boshlang'ich sinf, avlod-ajdodlar, ma'naviyat, yurt, o'qish texnikasi, erkin fikrlash, maqsad.

Insonning tafakkuri, ilmiy salohiyati, qobilyati, ijtimoiy muhim sifat sanaladi. Kelajakda Vatanimiz obod va ozod, erkin va farovon bo'lishi, iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishi ko'p jihatdan bugungi yoshlarning iqtidoriga, iste'dodiga, chuqur tafakkurli, bilimdon va ma'naviyatli bo'lishiga bog'liq. Yosh avlodning barkamol bo'lib yetishida ona tili ta'limining ahamiyati katta bo'lib, ona tili nafaqat bir xil fanlarni o'zlashtirishda, balki umuman, jamiyatda insonning mavjudligiga, ularning o'zaro aloqaga kirishishda muloqatning shakllanishida ham ahamiyatlidir. Ta'lim berish yangi, samarador, takomillashgan usul va texnologiyalarni yaratish, uni tajribada sinash va shu jarayonida yanada mukammallashgan yo'nalishini hosil qilishdan iborat bo'lib mukammal dastur, takomillashgan darslik, zamonaviy usul va texnologiyalar ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishga ta'sir etadi. Bugungi kunda ona tili darslari oldiga qo'ygan vazifalarining asosiysi yoshlarda o'z fikrlarini mantiqiy izchil, barcha imkoniyatlari gavdalangan holda ta'sirli ravishda yetkazib berishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasining emas, balki xat-savod o'rgatish, sinfdan va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) boshlang'ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya'ni kursning (xat-savod o'rgatish, o'qish, grammatika, imlo, nutq o'stirish va h.k.) dasturini belgilash va asoslash;

b) o'qish va yozuvdan bilim va ko'nikmalarning shakllanishi jarayonini hamda bu jarayonda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to'g'rilashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;

d) ona tilidan beriladigan o'quv materialini o'quvchilar aniq tushunishiva puxta o'zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va



o'quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya'ni ularning zehni, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o'ylashini, nutqini o'stirishga yordam beradigan metod va vositalarni ishlab chiqish;

e) ona tilini o'rgatish bilan bog'liq holda maktablar oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o'quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish.

Hozirgi zamon darsi shundan iboratki, o'quvchi, tinglovchi, o'qituvchi esa ma'ruzachi bo'lib qolmasligi kerak. Balki o'qituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissyorga aylanmog'i lozim. O'qituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki hamma o'quvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, o'z fikrini ayta olsin, kamchiligi bo'lsa o'rtoqlari va o'qituvchi javobidan kelib chiqib to'g'rilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda bo'lishiga erishishi lozim. Darslarda testlardan va tarqatmali materiallardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. O'quvchilarga til ta'limini singdirishda ularning yosh va bilim darajalarini ham hisobga olish zarur. Chunki 2-sinf o'quvchisiga 4-sinf hajmdagi bilimni berilsa o'quvchi buni hazm qila olmaydi, o'zlashtira olmaydi ham. Aksincha 4-sinf o'quvchisiga 1-2-sinfidagi bilimlar berish bilan cheklanib qolinsa, bu ham o'quvchi uchun zerikarli bo'ladi. Natijada o'quvchilarda tilni o'rganishga bo'lgan havas, qiziqish rivojlanish o'rniga susayadi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida "aktyor" emas "rejissyor" bo'lishi kerak. U o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik bilan qarashlarini tashkil etish, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish, shuningdek yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi yangi ta'lim usullari va me'todlarini bilishi, dars jarayonida ulardan samarali foydalanishi maqsadga muvofiq.

Interfaol metodlar bizga nima uchun kerak? Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Interfaol metod- ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metod. Interfaol metod va usullar: "Keys-stadi", "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Sinkveyn", "BBB", "Venn diagrammasi", "T jadvali", "Klaster", "Balik skaleti", "Aqliy hujum", "Zinama- zina", "Muzyorar" va hakoza. "Muzyorar" dars o'tilayotgan sinfdagi o'quvchilar befarqligining oldini olishga dars jarayonida hosil bo'lgan charchoqni va o'quvchilarga ruhiy bosim bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol faoliyat turidir. Demak, ular sinfdagi yuzaga kelgan "muzlash" ning oldini olish va agar bunday "muzlash" hosil bo'lgan bo'lsa, uni eritib, yorib yuborish uchun ishlatilishi mumkin. Ko'pgina o'qituvchilar



“muzyorar” larni ta’limni boshlang’ich bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, o’quvchilar bilan yoki o’quvchilararo muloqot ma’lum sabablarga ko’ra qiyinlashganda ham ishlatish mumkin. Ba’zi turlarga oid “muzyorar”lar o’quvchi yoki talabalarning bir-birlari bilan tanishishlariga mo’ljallangan bo’lib, guruhlardagi shaxslarning bir-birlariga savol berishlarini ularning o’qish yoki ish sharoitlari haqida o’zaro ma’lumot olishlarini, nimani yoqtirishlari haqida mulohaza qilishlarini o’z ichiga qamrab oladi.

Hozirgi kun ona tili o’qituvchisi bu yangi ta’lim usul va metodlaridan qay darajada foydalanyapti? Jamiyatning axborotlashuvi ta’lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni talab etadi. Bugun har qanday uslub darhol eskirishi va yangi metodlar bilan boyitilishi mumkin. Dars mashg’ulotida kerakli natijalarga erishish qaysi omillarga bog’liq? Dunyoning turli mamlakatlarida ko’plab tadqiqotchilar tomonidan ta’limda innovatsiyalarni qo’llash bo’yicha izlanishlar olib borilgan. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim yo’nalishlarini o’z ichida aks ettirgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ona tili darslarining samaradorligini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar - o’quvchilarning shaxsiy xulq – atvoriga, tashqi kuzatuvchi, xarakterlantiruvchi kuch sifatida ta’sir ko’rsatib, o’yin usullari yordamida olib borilgan mashg’ulotlar bolalarga boshlang’ich ta’lim metodikasi fanini o’zlashtirish bilan birgalikda kasbiy mehnatning mazmunini ochib borishga yordam beradi. Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatib kelingan edi. Bunday usul o’quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so’ndirar edi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko’tarishga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo’llanilgan mashg’ulotlar o’quvchilar egallayotgan bilimlarni o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O’qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o’quv jarayonida o’quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi. Toshkent “O’qituvchi” 2004.
2. Qosimova K. Matchonov S. “Ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent 2009



3. Ashrapova T. Odilova M “Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi”.
Qo’qon 2018
4. Eun, P. S., Kh, M. G., & Xasanova, G. (2023). The Role and Classification of
Parenthesis in Literature. American Journal of Language, Literacy and Learning
in STEM Education (2993-2769), 1(10), 324-328.
5. Israilova, S. (2022). “KO ‘K” LEKSEMASI SEMANTIKASINI YORITISHDA
TEZAURUS MODELIDAN FOYDALANISH. COMPUTER LINGUISTICS:
PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
6. S. Israilova, & N. Alavutdinova (2023). INTERCULTURAL COLOR
INTERPRETATION. Science and innovation, 2 (C12), 111-115. doi:
10.5281/zenodo.10392062
7. Отажонова, М. (2016). ИЖОДКОР БАДИЙ ТАФАККУРИДА
ВОҚЕЛИКНИНГ МИФОЛОГИЗАЦИЯЛАНИШИ. ВЕСТНИК
КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
ИМЕНИ БЕРДАХА, 32(3), 127-129.
8. Сабирова, Н. Э. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ УЧАЩИМИСЯ
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА С ЦВЕТОВЫМИ
КОМПОНЕНТАМИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In EUROPEAN
RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND
TECHNOLOGY (pp. 34-36).
9. ALAVUTDINOVA GANIEVNA, N. (2015). 20. ASIR ÖZBEK
DİLBİLİMİNDE MORFOLOJİYE AİT GÖRÜŞLERİN ŞEKİLLENMESİNDE
PROF. EYYÜP GULAMOV’UN YERİ. Turkish Studies (Elektronik), 10(12),
1-14.
10. Saydiyevna, K. G. (2023, April). O ‘ZGA TILLARNI O ‘QITISHDA
INTERNETNING O ‘RNI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC
CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1,
No. 14.04, pp. 110-113).
11. Khasanova, G. K. (2020). SOME COMMENTS ABOUT THE
COMMUNICATIVE PROCESS OF THE TEXT. Theoretical & Applied
Science, (9), 313-315.
12. Eun, P. S., Kh, M. G., & Xasanova, G. (2023). The Role and Classification of
Parenthesis in Literature. American Journal of Language, Literacy and Learning
in STEM Education (2993-2769), 1(10), 324-328.
13. Khayrullayevna, K. G. (2023). PRAGMATIC NATURE OF NONVERBAL
MEANS IN LITERARY TEXTS. Ethiopian International Journal of
Multidisciplinary Research, 10(12), 121-124.